

FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIGA IQLIMINI TA'SIRI

Qo'chqarov Otabek Axmedovich
Qo'qon davlat universiteti g.f.f.d. (PhD) o'qituvchisi
Nazarov Husniddin Yoqubovich
Qo'qon davlat universiteti v.b.dotsent

Annotatsiya. Maqolada Farg'ona vodiysida iqlim hosil qiluvchi omillar, shamollar yo'nalishi (guli), xarorat ko'rsatkichlari, havo namligi, atmosfera yog'inlari miqdori. morfogenetik xususiyatlari haqidagi ilmiy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Urbanizatsiya, kotlovan, klassifikatsiya, shtil konvektiv, Orografik, atmosfera, RECHU

ВЛИЯНИЕ КЛИМАТА НА ГОРОДА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Кочкаров Отабек Ахмедович
Доктор философии (PhD) Кокандского государственного университета
Назаров Хусниддин Якубович
и.о. доцента Кокандского государственного университета

Аннотаци. В статье создающие климат Ферганской долины, направление ветров, температурные показатели, влажность воздуха, количество атмосферных осадков. даны научные сведения о морфогенетических характеристиках.

Ключевые слова: Урбанизация, раскопки, классификация, стиль конвективный, орографический, атмосфера, РЕЧУ

THE IMPACT OF CLIMATE ON THE CITIES OF THE FERGANA VALLEY

Kochkarov Otabek Akhmedovich
Doctor of Philosophy (PhD) at Kokand State University
Nazarov Husniddin Yaqubovich
Acting Associate Professor at Kokand State University

Abstract. In the article, factors that create climate in the Fergana Valley, the direction of winds, temperature indicators, air humidity, and the amount of atmospheric precipitation. scientific information about morphogenetic characteristics is given.

Key words: Urbanization, excavation, classification, style convective, Orographic, atmosphere, RECHU

Kirish: Farg'ona vodiysining iqlimi va uning hosil bo'lishi juda ko'p omillarga bohliq. Birinchi va muhim omil uning geografik o'rni, geografik tuzilishi bo'lib, unga ko'ra cho'l va chala cho'l (dasht) zonalarining iqlimi xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Orografik jihatidan deyarli barcha tomonlari tog'lar bilan o'ralganligi uchun havo oqimlarining qarshiliksiz kirib kelishi imkoniyati pasayadi. Farg'ona vodiysidga, ayniqsa, qish oylari kirib keluvchi havo massalari tog' yonbag'irlari bo'ylab vodiy markazi tomon tushib kelganda yanada sovib bir qancha muddat turib qoladi va havo haroratining keskin pasayishi kuzatiladi. Babushkin L.N. klassifikatsiyasi bo'yicha Farg'ona vodiysi hududi (tekistlik qismi) mutloqa quruq va juda quruq zonaga ajratiladi. Bu yerda 0,08-0,2 gacha, namlanish koeffitsenti 0,02 dan 0,09 gachani tashkil etadi.

Asosiy qism: Farg'ona vodiysining iqlimi quruq, davomli, yozi issiq, qishi mo'tadil, shu kenglikda joylashgan qo'shni Toshkent-Mirzacho'l okrugidan biroz farq qiladi: vodiyning atrofini o'rab olgan tog'lardan esadigan sovuq havo qishda Farg'ona botig'ining markaziy qismida to'planib qoladi, natijada yanvarning o'rtacha harorati —3°S bo'ladi. Ba'zi yillari shimol va shimoli-sharqdan sovuq xavo massasi esib, tog'lardan oshib o'tadi va vodiy haroratini

juda pasaytirib yuboradi. Ana shunday paytlarda eng past harorat —3,0, —31°S ga xushadi. Ammo qish faslida sovuklar bilan birga, ba'zan + 15°S issiq kunlar ham bo'lib turadi. Farg'ona vodiysida bahor qisqa bo'lib, ob-havo tez-tez o'zgarib, goh isib, goh sovib ketadi. Ayniqsa bahorda esgan kuchli shamollar tuproq qatlamining ustki qismini uchirib, changto'zon vujudga keltiradi. Bu kuchli shamollar ichida «Qo'qon» va «Bekobod» deb ataladigan shamollar xarakterlidir. Bu shamolar vodiya oktabr oyidan mart oyigacha hukmronlik qiladi. Shamol ayniqsa qishda vodiyni sovib ketishi natijasida, uning sharqida antitsiklon, g'arbda — Mirzacho'lda siklon turganda kuchayadi. Quruq bo'lib, okrugdagi eng kam yog'in tushadigan (yillik yog'in miqdori 100—150 mm) hudud hisoblanadi. Rayon hududida faqat Sirdaryoning yangi qayiri va markaziy qismidagi kichik qumliklar hamda sho'rxok joylarga o'zlashtirilmagan, xolos. vodiya yog'in miqdori 98—226 mm. Lekin yog'in miqdori hududning hamma y yerida bir xil emas. Agar okrugning g'arbiy qismida (Qo'qon) 98 mm yog'in tushsa, sharqiy qismida (Andijon) 226 mm yog'in yog'adi. Buning asosiy sababi shuki, okrug relyefi g'arbdan sharqqa balandlashib boradi.

Ma'lumki, shaharlarning qurilishidagi dastlabki bosqich tabiiy landshaft fonida amalga oshiriladi; Bunday holatda shaharlar landshaftining hududiy tabaqalanishiga ta'sir etuvchi omillar ko'proq tabiiy omillar hisoblanib ularning muhimlari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

1. Tabiat zonasi (geografik joylanishi).
2. Geologik geomorfologik xususiyatlari.
3. Shamollar yo'nalishi (guli).
4. Xarorat ko'rsatkichlari, havo namligi.
5. Atmosfera yog'inlari miqdori.

Yuqorida e'tirof etilgan omillar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarimizda landshaftlarning tabiiy elementlarini Andijon, Namangan, Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon shaharlari bo'yicha ma'lumotlarni to'plab qiyosiy tahlil qildik va buning natijasida landshaftlarning tabiiy va resurs potensialidan foydalanishdagi ayrim tafovutlarni aniqladik. Tabiiy landshaft elementlari ichida iqlimiy omillar muhim o'rin egallaydi. O'z vaqtida esa yirik shaharlarda o'ziga xos mikroiqlim hosil bo'ladi. Farg'ona vodiysidagi biz tadqiqot olib borgan shaharlarning iqlim ko'rsatkichlari quyidagicha tafovutlarga ega [1-jadval]

Farg'ona vodiysidagi ko'p yillik o'rtacha iqlim ko'rsatkichlar

Shaharlar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	Yillik o'rtacha
-----------	---	----	-----	----	---	----	-----	------	----	---	----	-----	-----------------

Xarorat

Andijon	0.2	2.8	9.1	14.9	20.7	26.2	29.1	28	22.6	14.7	7.1	1.2	14.7
Namangan	0.7	3.5	10.2	16.4	22.4	27.6	30.1	28.9	23.5	15.6	7.8	1.5	15.6
Farg'ona	1.7	4	9.8	15.2	21.2	26.5	29	27.6	22.5	15	7.9	2.6	15.2
Qo'qon	1.7	4.3	10.7	17.1	23.6	28.6	30.8	29.2	23.7	16	8.3	2.5	16.3

Yog'inlar

Andijon	26	37	50	57	50	31	13	9	12	28	35	36	32
Namangan	23	38	48	55	45	23	10	7	10	24	32	33	29
Farg'ona	22	30	43	45	34	23	10	7	9	24	30	31	25
Qo'qon	18	23	34	33	21	13	5	4	6	17	25	18	17

Nisbiy namlik

Andijon	70%	69%	66%	60%	50%	34%	29%	32%	36%	49%			
Namangan	64%	60%	56%	51%	44%	33%	29%	32%	36%	47%	60%	67%	48%

Farg'ona	67 %	66 %	62 %	56 %	46 %	32 %	30 %	33 %	40 %	50 %	64 %	67 %	51 %
Qo'qon	69 %	65 %	60 %	51 %	39 %	29 %	27 %	32 %	38 %	50 %	66 %	71 %	49 %

Shamol

Kriteriyalar	Andijon	Namangan	Farg'ona	Qo'qon
Shamolning asosiy yo'nalishlari	G'arbiy 25,5% janubiy g'arb 25,1% SHimoliy g'arb 17,6%	Janubiy g'arb 20,5% janub 18,3% shimoliy g'arb 15,1%	Shimoliy 35,7% g'arbiy 20,9% janubiy g'arb 15,2%	Shimoliy 35,7% g'arb 20,9% shimoliy g'arb 19,1%

1-jadval Farg'ona gidrometeorologiya boshqarmasi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan yaratildi.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, shaharlar landshaftidagi iqlimiy tafovutlar unchalik katta emas. Yillik yog'in miqdorida eng ko'p ko'rsatgich Andijon shahriga va eng kam ko'rsatgich Qo'qon shahriga to'g'ri keladi. Buning asosiy sabab shamollar yo'nalishi va kuchi bo'lib Qo'qon shahrida shamolning kuchi 15m/sekdan yuqori bo'lib nam havo oqimlarini sharqqa Andijon yo'nalishi tamonga surib yuboradi. Shaharlar iqlimiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri shamollar yo'nalishi, ularning kuchi bo'lib, biz tadqiqot o'tkazgan barcha shaharlarda katta tafovutlar yuzaga keladi. Farg'ona vodiysining birmuncha g'arbda joylashgan Qo'qon shahrida 15m/sek va undan kuchli bo'lgan shamolli kunlarning takrorlanishi 39 kun, Farg'ona shahrida 23 kun va Andijon shahrida esa 5 kunga tengdir. Farg'ona shahriga yaqin joylashgan Marg'ilon shahrida ham shamollarning yo'nalishi va kuchini geografik joylashuvi belgilab beradi. Farg'ona shahri kabi shimoliy va sharqiy yo'nalishlardagi shamollarning xukmronligi kuchli yan'ni, shimoliy-35,7%, g'arbiy-20,9%, shimoliy-g'arbiy-19,1% ni tashkil etadi, qolgan yo'nalishlar bo'yicha shamolning o'rtacha ko'rsatgichi 2-8% ga teng va shaharlar havosining potensial ifloslanishida shamolning ta'siri yuqori.

Andijon shahri Farg'ona vodiysining boshqa shaharlariga nisbatan kuchli shamollarni kam esishi bilan ajralib turadi, shahar yo'nalishiga eng ko'p g'arbiy yo'nalishdagi shamollar xarakterlanadi.

Namangan shahrida ham kuchli shamollarning esishi yil davomida 24 marotaba kuzatiladi va g'arbdan kirib keluvchi shamollar yo'nalishidan biroz chetroqda joylashgan. Bu yerda ko'proq janubiy va g'arbiy yo'nalishdagi shamollar ko'proq esadi, yan'ni janubiy-g'arbiy - 20,5%, janubiy-18,3%, g'arbiy -15,1% ni tashkil etadi.

Farg'ona shahri ham shamollarga birmuncha ro'para joylashgan bo'lib, shahar iqlimiy potensialida salbiy holatlarni yuzaga chiqaradi. Bu esa shahar atmosferasi ifloslanishiga sharoit yaratadi. Farg'ona shahrida eng ko'p esuvchi shamollar yo'nalishi shimoliy va g'arbiy yo'nalishlar bo'lib, shimoliy -35,7% ni, g'arbiy 20,9% ni, shimoliy g'arbiy 19,1% ni tashkil etadi. Tadqiqot olib borilgan shaharlarimiz ichida Qo'qon shahri shamollarga birmuncha ro'paraligi, kuchli shamollarning ko'p takrorlanishi, iqlimiy ifloslanish potensialida shamolning ta'siri kuchli ekanligi bilan ajralib turadi. Shamollar yo'nalishi va kuchi bo'yicha g'arbiy-20,1%, shimoliy-sharqiy-19,7%, sharqiy-19,4%, janubiy-g'arbiy-15,2%, shimoliy-10,5%, ko'rsatgichga ega. Shaharlar atmosfera havosining ifloslanishida respublikamiz va boshqa hududlar ustida hosil bo'lgan chang to'zonlarining ham salbiy ta'siri kattadir.

Xulosa Chang to'zonlarining hosil bo'lishi mahaliy va subektiv omillarga bog'liqdir. Havoning mahaliy sharoitda konvektiv harakati tufayli hamda katta massadagi sovuq-quruq yoki tropik quruq havo oqimlarining kirib kelishi natijasida respublikamizning deyarli barcha hududlari singari Farg'ona vodiysida ham chang to'zonlar hosil bo'lishi tez-tez kuzatilib, shaharlar atmosfera havosining RECHU dan bir necha barobar ko'p ifloslanishi ta'minlaydi. Bunday tipdagi chang to'zonlar respublikamizda 2021 yilning dekabr oylarida ayniqsa atrof

muhit holati, kishilar salomatligiga katta xavf tug'dirdi. Shaharlardagi havoning shtil holatida ifloslanish darajasi sezilarli ravishda kuchaydi. Shaharlar atmosfera havosidagi chang to'zonlarning yuzaga kelishini oldini olishda, uning salbiy oqibatlarini kamaytirishda albatta yashil maydonlarning talab darajasida bo'lishi, shaharlar atroflaridagi shamolga ro'para yo'nalishlarda baland bo'yli, ko'p yillik daraxtlarning 3-5 qatorli himoya polasalarini bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Аҳмадалиев Ю., Джўрабоева Х., Комилова Н. Анъанавий суғориш тизимида жойнинг географик хусусиятларини ҳисобга олиниши// Ўзбекистон география жамияти ахбороти.-Тошкент, 2003. №23.-Б. 199-200. (11.00.00; № 6)
2. Маматқулов М., Эгамов Б. Геология ва геоморфология. Дарслик. -Тошкент. —VneshInvestProml, 2019. 208б.
3. Пирназаров Р. Т., Собиров Т. С. Ў. ИҚЛИМ ЎЗГАРИШ ШАРОИТИДА СУВГА БЎЛГАН ТАЛАБЧАНЛИКНИНГ ОРТИШИ ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 404-408.
4. Шомуратова Н.Т. Ўзбекистонда экологик туризм ва унинг табиий географик жиҳатлари // г.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент. 2012. -125
5. Ҳасанов И.А., Ғуломов П.Н., Қаюмов А.А. Ўзбекистон табиий географияси. 2-қисм. –Тошкент. Университет, 2010 йил –100 б.
6. Якубжанова Ш.Т. Агротуризмнинг табиий географик жиҳатлари (Ўзбекистон мисолида). География фанлари бўй. фал. док. (PhD) илмий дараж. олиш учун тайёр. дисс.-Тошкент. 2018. -120 б.
7. Farg'ona viloyatining statistik axborotnomasi 2019 у.